



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### TABIYY GEOGRAFIYA DARSLARIDA “AVSTRALIYA MATERIGI IQLIMI” MAVZUSINI O‘QITISHDA ASSESSMENT TEXNIKASIDAN FOYDALANISH

Abdinazarova X. O.

dotsent, g.f.f.d. (PhD) QDPI

Abdinazarov B. X.

katta o‘qituvchi, Qo‘qon Tibbiyot texnikumi

Xamdamjonova J.

talaba, QDPI

#### Annotatsiya

Maqola Tabiiy-geografiya darslarida “Assesment” texnikasini qo‘llashga bag‘ishlangan. Jumladan, “Avstraliya materigi iqlimi” mavzusini o‘quvchilar ongiga singdirishda mazkur ta’lim texnologiyasini qo‘llash usullari o‘rganilgan va xulosalar qilingan.

**Tayanch so‘zlar:** interfaol texnologiya, Assesment, Avstraliya materigi, iqlim, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «КЛИМАТ АВСТРАЛИИ» НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ

#### Аннотация

Статья посвящена использованию методики «Оценка» на уроках естественной географии. В частности, были изучены методы использования данной образовательной технологии для внедрения в сознание студентов темы «климат материковой части Австралии» и сделаны выводы.

**Ключевые слова:** интерактивные технологии, Оценка, материковая часть Австралии, климат, климатообразующие факторы, климатические регионы.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### USE OF ASSESSMENT TECHNIQUES IN TEACHING THE SUBJECT "CLIMATE OF AUSTRALIA" IN NATURAL GEOGRAPHY LESSONS

#### Annotation

The article is devoted to the use of the "Assessment" technique in natural geography lessons. In particular, the methods of using this educational technology to introduce the topic of "climate of the Australian mainland" to the minds of students were studied and conclusions were drawn.

**Key words:** interactive technology, Assessment, Australian mainland, climate, climate-forming factors, climate regions.

#### Kirish

Hozirgi paytda pedagoglar zimmasiga ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddat bilan rivojlanayotganligi o'sib kelayotgan yosh avlodni yuksak tafakkurli, keng dunyoqarash va yuqori bilimli, malakali kadrlar etib tarbiyalash kabi juda ulkan vazifalar yuklanmoqda. Bu borada, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ham bejizga emas [1]. Bu esa, har bir O'zbekistonlik o'qituvchi - pedagoglardan tinmay o'z ustida ishlash va izlanishni talab qiladi va ayni paytdagi ta'lim jarayonidagi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, geografiya darslarida mavzuning murakkabligi, o'quvchining yoshi, tayyorgarligi va o'zlashtirish iqtidorini hisobga olib pedagogik texnologiyalarni muntazam tadbiq etib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki doimiy ravishda ta'lim texnologiyalarini u yoki bu turini maktabgacha, umumiyl o'rta (tayanch), professional va oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan geografiya fanlarning mavzusiga mos va xos holda tanlanishi o'quvchilarni dars jarayonidagi faolligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda Umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf geografiya darsligi o'quvchilarga Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi to'g'risida bilimlar bilan qurollantiradi. Mazkur kurs asosan ikki qismdan iborat bo'lib, 1-qismda geografik qobiq va uning asosiy komponentlari, Dunyo okeani va ularning qismlari haqida umumiyl tabiiy geografik ma'lumotlar o'rin olgan. Darslikning 2-qismida esa, Materiklar va ularning tabiat haqidagi tabiiy geografik bilimlar keltirilgan [2]. Biz tomonimizdan o'rganilayotgan "Avstraliya materigi iqlimi" mavzusi darslikning 2-



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qismida berilgan. Unda o‘quvchilarga Avstraliya materigi iqlimining shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi asosiy omillar, materikda hosil bo‘lgan asosiy iqlim mintaqalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi tabiiy geografik bilimlar bilan qurollantiradi. Biz ushbu mavzuni o‘quvchilar ongiga singdirishda hozirgi zamon ta’lim texnolgiyalaridan “Assesment” texnikasini dars jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari haqida fikr yuritdik. Quyida mazkur mavzuni o‘qitishda qo‘llanilishi tavsiya etilgan usullarning tadbipi misol sifatida keltirilgan.

**«Assesment» texnikasi.** Ushbu texnika baholash metodi ichida usul sifatida qo‘llaniladi. Texnika mohirlik, ustalik degan ma’noni bildiradi, demak o‘quvchilarlar o‘z bilim, ko‘nikma, malakalarini mohirlik bilan sinab, o‘z-o‘zlarini baholashlari, bir sinovdan o‘tishlari mumkin. Assesment (ingliz tilida – assesment - baho), yoki o‘z-o‘zini taqdimot qilish, ma’lum bir sinovdan o‘tish deb belgilanadi [3, 4].

Usulning mohiyati. Ushbu uslub o‘tilgan (chorak yoki o‘quv yili tugagan) o‘quv predmeti yoki bo‘lim bo‘yicha barcha mavzularni tinglovchilar tomonidan yodga olish, yoki biron-bir mavzu bo‘yicha trener-o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq, vazifalarga mustaqil ravishda o‘z munosabatlarini bildirish, shu orqali egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘zlarini tekshirib, baholashlariga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan bilimlari, ko‘nikmalarini baholay olishga yo‘naltirilgan [3, 4]. Usulning qo‘llanilishi: o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, o‘quv predmetining birion-bir bo‘limi tugallanganganida) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yoki choraklarda o‘quvchilarni dastlabki bilimlari, ko‘nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu usulni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish mumkin. Ushbu usuldan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo‘ladi [3, 4].

Biz tomonimizdan, ushbu usuldan “Avstraliya materigi iqlimi” mavzusini o‘qitishda darsning yangi mavzu qismini mustahkamlash bosqichida qo‘llash tavsiya etiladi(1-rasm).



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

<p><b>Tezkor savollar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Avstralija materigida nechta iqlim mintaqasi shakllangan?</li> <li>Materkning markazidan qaysi iqlim mintaqasi kesib o'tadi?</li> <li>Avstraliyada eng ko'p yog'in qayerga va qancha miqdorda tushadi?</li> <li>Materiklar iqlimini shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab bering?</li> <li>Materikka okeandagi qaysi oqimlar ta'sir ko'rsatadi?</li> <li>Tasmaniya oroli va Yangi Zellandiyaning Janubiy oroli qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?</li> </ol>	<p><b>Muammoli vaziyat</b></p> <p><b>Avstraliyaning markaziy qismini ekvatorial iqlim mintaqasi kesib o'tsa materikda qanday tabiiy hodisalarни kuzatish mumkin?</b></p>
<p><b>Tushunchalar tahlili</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Iqlim deb.....</li> <li>Yalpi radiatsiya bu-.....</li> <li>Arid zona deb.....</li> </ol>	<p><b>Amaliy ko'nikma</b></p> <p>Materikning Eyr-Nort ko'li atrofidagi havo +5 C va atmosfera bosimi 740 mm ni tashkil etsa, Kosyushka tog'idiagi (2228m) havo harorati va atmosfera bosimini aniqlang?</p>

### 1-rasm. Assesment texnikasi

Xulosa. Yuqorida o'r ganilgan mavzudan kelib chiqib quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi, ya'ni:

- ✓ Umumiy o'rta ta'lif maktablarida "Tabiiy geografiya" fanini xususan, 7-sinf geografiyasi kursini o'qitish jarayonida o'qitishning samarali usullaridan interfaol ta'lif texnologiyalarni keng joriy etish;
- ✓ Har bir ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar tomonidan yuqoridagi metodlarni optimal qo'llash masalalari bo'yicha sohaning yetuk mutaxassislarini jalb etish va maxsus seminar - treninglar tashkil qilish;
- ✓ Yaratilayotgan texnologik innovatsiyalar o'quvchilarni motivatsiyasini, faolligini, ma'suliyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi, kam vaqt oralig'ida yuqori kafolatlangan natijani ta'minlay olishiga erishish;

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi. [Review.uz](#)
- M. Abdurahmonov, B. Abdurahmonov Tabiiy geografiya: qiziqarli dars shakllari uslubiy qo'llanma. Namangan – 2000 y.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. Ishmuhammedov R. Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar., Toshkent-2016. – 54 b.
4. Abdinazarova, Н. О. "ФАРГОНА ИҚТИСОДИЙ РАЙОНИДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН КИМЁ САНОАТ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАВСИФИ." Экономика и социум 3-2 (94) (2022): 351-356.
5. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abduvohidova Zumradxon. "Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan." American Journal of Social and Humanitarian Research 3.11 (2022): 333-338.
6. Kh, Komilova N., and H. O. Abdinazarova. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." Экономика и социум 5-1 (84) (2021): 248-255.
7. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." Экономика и социум 9 (76) (2020): 3-7.
8. Oripovna, A. K. "The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District." International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences 2.6 (2022): 135-140.
9. Komilova, N. Kh. "Abdinazarova Kh. O. Some theoretical aspects of the development of the chemical industry." European Science Review Austria Vienna (2019): 25-27.
10. Abdinazarova Н.О. "ФАРГОНА ИҚТИСОДИЙ РАЙОНИДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН КИМЁ САНОАТ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАВСИФИ" Экономика и социум, №. 3-2 (94), 2022, pp. 351-356.
11. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan. Экономика и социум. Электронное периодическое издание Россия, г. Саратов 2020. № 9 (76)." 3-7.
12. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon. "Stages of Development of Uzbekistan Industry and Changes in It." Eurasian Journal of History, Geography and Economics 20 (2023): 56-60.
13. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abdinazarov Bunyodjon Khaliqazarovich. "Application of Non-Standard Test Tasks in Teaching the Subject of "Lower Amu Darya Economic District"." Eurasian Journal of History, Geography and Economics 20 (2023): 61-64.